

CHET TILLARNI ONLAYN TARZDA O'QITISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI VA STANDARTLARINING O'ZIGA XOSLIKHLARI

Usmonova Maftuna Oybekovna

Farg'onan viloyati Quva tuman kasb-hunar maktabining

Ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yurtimizda chet tillarni online o'qitishda xalqaro baholash dasturlari va standartlari shu jumaladan ingliz tilini o'qitishdagi IELTS, CEFR, PISA, ICILS, PIRSL, TIMSS kabi xalqaro dasturlar va standartlarning o'ziga xosliklari va ularni qo'llash jarayonida qay darajada samarali bo'lishi, shuningdek ta'lif sifatini oshirishda xalqaro ta'lilda erishlgan sifat va natijani O'zbekiston yoshlari orqali oshirish haqida yoritishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: Xalqaor baholash dasturlari va standartlari, PISA, PIRSL, IELTS, Sifat va samaradorlik, GMAT.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydag'i PQ-5117-son qaroriga muvofiq, shuningdek, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida Vazirlik Mahkamasi qarori qabul qilindi. Ushbu qabul qilingan qaror orqali milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi desak xato bo'lmaydi. Eng asosiysi bu qaror bilan hozirgi yosh avlod uchungina emas balki butun til o'rganuvchilar uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lib, xorijiy til o'rganuvchilarni onlayn tarzda o'qitishda xalqaro baholash dasturlari va standartlari ham juda muhim rol o'ynaydi. Bu nima degani, ya'ni chet tillarni onlayn o'qitishda kamchiliklar va muammolarini yo'qotishda va yutug'li tomonlari bilan birgalikda samaradorligini oshirish uchun asosiy va yetakchi rol ijro etadi. Xalqaro baholash dasturlari va standartlari butun dunyo tan olgan baholash tizimlari bo'lib, ular chet tillarini o'qitishda yuqori natija erish va samaradorligini aniqlash uchun alohida o'rinish tutadi.

Yangilanib borayotgan yangi O'zbekistonda Prezidentimiz tomonida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga

erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lif tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridaagi talablarning ta'lif tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lif va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lif sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalg qilish kerakligini anglatadi.

Ta'lif sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O'zbekiston Milliy ta'lif tizimini isloq qilish, ta'lif mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'll keladi. Bu xalqaro dasturlar orqali tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lif sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Xalqaro tadqiqotlar ta'lif sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi. Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi. O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalg qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lif sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi. Milliy ta'lif sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi. Shunday ekan qanaqa baholash dasturlari mavju d? Ular quydagilar:

PISA - o'quvchilarni ta'lifi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi bo'lib, PISA (inglizcha - Programme for International Student Assessment) - turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. PISA bo'yicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik Yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning 1% ga o'sishini ta'minlaydi. PISAda o'quvchilarning bilim sifati monitoringi 5 ta yo'nalish bo'yicha aniqlanadi. PISAda o'quvchilarning bilim sifati monitoringi 5 ta yo'nalish bo'yicha aniqlanadi.

PIRLS - matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot.

TIMSS - maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring.

ICILS - kompyuter va axborot savodxonligi bo'yicha xalqaro tадqiqot kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lif sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilmoqda.

GMAT (The Graduate Management Admission Test) - bu ingliz tilidagi standartlashtirilgan kompyuterlashtirilgan test, bu biznes maktablariga MBA dasturlariga yoki menejment bo'yicha boshqa bakalavr dasturlariga hujjat topshirishda nomzodlarning biznes va menejment bo'yicha keyingi ta'lif olish uchun tayyorgarlik darajasini xolisona baholash imkonini beradi. IELTS, TOEFL iBT, GMAT, GRE, SAT kabi xalqaro dasturlar ham juda muhim bo'lib, chet tillarni onlayn tarzda o'qitishda erishilgan yutuq va kamchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi.

GMAT-dan hozirda dunyo bo'ylab 2500 dan ortiq biznes maktablari foydalanmoqda. GMAT-dan o'tishingiz mumkin bo'lgan markazlar butun dunyoga tarqalgan va abituriyentlar uchun butun yil davomida ochiqdir. GMAT xususiyatlari quydagilardan iborat: nutq, yozuv va matematik ko'nikmalarni tekshiradigan umumiy ta'lif testi. Qiyinchilik shundaki, test ingliz tilida topshiriladi va shuning uchun ingliz tilini yuqori darajada bilishni talab qiladi. GMAT menejmentda zarur bo'lgan ko'nikmalarni sinab ko'rish uchun mo'ljallangan. Biroq, bu maxsus bilimlarni talab qilmaydi va tor mutaxassislik sohalarini qamrab olmaydi. GMAT testining o'ziga xos xususiyati shundaki, uning natijalari yordamida inson salohiyatini aniqlash, biznes maktabida o'qish jarayonida uning muvaffaqiyatini taxmin qilish mumkin. Jadallahib borayotgan bu muhim bir davrda davlatning ta'lif sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish uning kelajagini yanada mustahkamlash va metindek poydevor qurib borish bilan barobar hisoblanadi. Bundan xalqaro baholash dasturlaning o'ziga xosliklari va sinovlardan o'tib yuqori natijalarga erishi bu tizimning butun dunyo mamalakatlari o'z ta'lif tizimlarida qo'llashi uning ahamiyati naqadar muhim ekanligidan dalolat beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan. 2017.22-sentabr
2. "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori.